

Esonov Murodali Qambarali o'g'li

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti Tarix
yo'nalishi 101-guruh talabasi ali006esonov@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola miloddan avvalgi 331-yilda bo'lib o'tgan Gaugamela jangining harbiy va siyosiy ahamiyatini yoritadi. Unda jang oldidan taraflarning harbiy kuchlari va pozitsiyalari, Aleksandr Makedonskiy qo'mondonligidagi Makedoniya qo'shinining jang davomida qo'llagan strategiyalari, Doro III rahbarligidagi Fors armiyasining harakatlari, jangning borishi va natijalari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Gaugamela Jangi, Aleksandr Makedonskiy, Doro III, Ahamoniylar Imperiyasi, Makedoniya Qo'shini, Harbiy Strategiya, Ellinistik Davr, Fors Armiyasi, Tarixiy Tahlil, Siyosiy Natijalar.*

Аннотация: *Эта научная статья проливает свет на военное и политическое значение битвы при Гавгамеле, произошедшей в 331 году до нашей эры. В нем рассказывается о военных силах и позициях сторон перед битвой, о стратегиях, которые использовала македонская армия под командованием Александра Македонского в ходе битвы, о действиях персидской армии под командованием Дария III, О ходе и результатах битвы.*

Ключевые слова: *Битва При Гагамеле, Александр Македонский, Дарий III, Империя Ахеменидов, Македонская Армия, Военная Стратегия, Эллинистический Период, Персидская Армия, Исторический Анализ, Политические Результаты.*

Annotation: *this scientific paper highlights the military and political significance of the Battle of Gaugamela in 331 BC. It tells about the military forces and positions of the parties before the battle, the strategies used by the Macedonian army under the command of Alexander The Great during the battle, the actions of the Persian army under the leadership of Darius III, the course and results of the battle.*

Keywords: *Battle of Gaugamela, Alexander Macedonski, Darius III, Achaemenid Empire, Macedonian army, military strategy, Hellenistic period, Persian Army, Historical Analysis, political results.*

Gaugamela jangi, Eramizdan avvalgi 331-yil 1-oktabrda sodir bo'lib, bu jang tarixdagi eng muhim harbiy qarama-qarshiliklardan biri sifatida qaraladi. Bu jang Makedoniyalik Aleksandr boshchiligidagi yunon qo'shinlari bilan Ahamoniylar saltanatining so'nggi yirik podshosi Doro III boshchiligidagi fors qo'shinlari o'rtasida kechgan. Jang maydonining tanlanishi bu qarama-qarshilikning asosiy jihatlaridan biri bo'lib, strategik va taktik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Doro jang uchun Gaugamela tekisligini tanladi. Bu joy qadimiy Assuriya shahri Nineviyaning shimoli-sharqida, hozirgi Iroqdagi Mosul shahri yaqinida, Tigris daryosining sharqiy sohilida joylashgan edi.

Maydon tanlovining asosiy sababi Doroning katta va son jihatdan ustun bo'lgan otliq qo'shinlaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish edi.⁷ U otliqlar harakatini cheklamaslik, jangovar aravalar uchun silliq yo'l ta'minlash maqsadida butun tekislikni sun'iy tarzda tozalangan va tekislagan. Tarixiy manbalarda bu ishga katta kuch va resurs sarflangani qayd etiladi. Shuningdek, Doro jangni ochiq maydonda olib borishni afzal ko'rdi. Chunki u son jihatidan ustun bo'lgan qo'shini bilan Aleksandr qo'shinini o'rab olish va tezda tor-mor etishni mo'ljallagan edi.

Gaugamela maydonining tanlanishi nafaqat harbiy nuqtayi nazardan, balki siyosiy va psixologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega edi. Doro o'z kuchiga hatdan tashqari ishonar, avvalgi Iss jangida yengilgani uchun shon-sharafini tiklashga intilar edi. U bu jang orqali nafaqat Aleksandrni mag'lub etishni, balki butun Fors imperiyasining ustunligini qayta tiklashni ko'zlagan. Shunday qilib, jang maydonining ehtiyotkorlik bilan tanlanishi Doroning strategik rejasining ajralmas qismi edi.

Shunga qaramay, maydon tanlovi Makedoniyalik Aleksandrning moslashuvchanligi va harbiy iqtidorini to'xtatib qoya olmadi. U bu hududdagi noqulayliklarga qaramasdan, o'z qo'shinini mukammal tarzda joylashtirib, qarama-qarshi kuchga nisbatan aniq va qat'iy strategiya tuzdi. Shu sababli, Gaugamela jangining boshlanishida maydon tanlovi Doro foydasiga ko'ringan bo'lsada, natija umuman aksincha bo'ldi.

Aleksandr Makedonskiy Gaugamela jangida nafaqat harbiy kuchga, balki strategik tafakkur va maydon joylashuvidan samarali foydalanish orqali ham ustunlikka erishdi. U o'z qo'shini son jihatidan raqibdan ancha kam bo'lishiga qaramay, har bir birlikni aniq maqsadga muvofiq joylashtirgan va butun armiyani bir butun tizimli mexanizm sifatida boshqargan. Gaugamela jang maydoni Doroning otliq va aravali kuchlari uchun qulay bo'lsada, Aleksandr bu muammoni oldindan bilib, unga qarshi taktik yechimlar ishlab chiqdi.

Aleksandr o'zining asosiy kuchlarini jang maydonining o'ng qanotida to'pladi. Bu yerda u o'zining eng ishonchli va tajribali bo'linmalari — Getayr otliqlariga boshchilik qilgan.⁸ Ushbu bo'linma Aleksandrning shaxsiy qo'mondonligi ostida jangning eng muhim momentlarida hal qiluvchi zarbani berish uchun tayyor holatda edi. Getayr otliqlari oldida Agraniyaliklar va yengil qurollangan otliqlar joylashtirilgan bo'lib, ularning vazifasi Doroning pichoqli aravalariga qarshi kurashish, ularni sekinlashtirish va yo'q qilish edi.

Aleksandrning armiyasi falangadan iborat markaziy kuchlar bilan mustahkamlangan edi. Falanga olti bo'linmadan iborat bo'lib, har biri zich va tartibli safda harakat qilardi. Bu piyoda qo'shinlarining asosiy vazifasi dushman markazini ushlab turish va og'ir zarbani yutishdan iborat edi. Ularning chapida esa Goplitlar — elit yengil qurollangan piyodalar joylashtirilgan bo'lib, ular falanga va otliqlar o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirib, himoya uzluksizligini ta'minlashardi.

⁷ Ахмедов, Б. – "Александр Македонский и Восток" – Фан – Ташкент, 1989 – 103-104-бетлар

⁸ Quintus Curtius Rufus – "Historiae Alexandri Magni" – Penguin Classics – New York, 1984 – 4-kitob, 13 pp.

Chap qanotda Parmenion boshchiligidagi yunon, fessaliyalik va boshqa ittifoqchi otliqlar saf tortgan edi.⁹ Bu bo'linmalar son jihatidan kam bo'lishiga qaramay, mudofaa vazifasini bajarar, ayniqsa Doroning o'ng qanotidagi kuchli otliqlarga qarshi turish uchun joylashtirilgan edi. O'ralib qolish xavfi mavjudligi sababli, Aleksandr ikkinchi darajadagi piyoda liniyasini yaratdi. Bu chiziqli orqada joylashib, ehtimoliy chekinishda yoki dushman aylana hujumlarida zaxira sifatida harakat qilishga tayyor edi.

Strategik jihatdan eng dolzarb yondashuvlardan biri bu Aleksandrning "en echelon" – ya'ni qanotdan qiyshiq holatda oldinga siljish taktikasidir. Bu taktika orqali u o'zining o'ng qanotini asta-sekinlik bilan dushman chap qanotiga yaqinlashtirib, ularni bo'sh pozitsiyada qoldirishga erishgan. Shu yo'l bilan u raqibni markaziy liniyada himoyasiz holatda qoldirib, o'zining zarbdor kuchlari bilan bu nuqtani yorib o'tishga tayyorlandi.

Aleksandrning strategiyasida har bir bo'linmaning roli oldindan aniq belgilanib, barcha harakatlar sinxronlashtirilgan edi. Bu o'zaro uyg'unlik va rejalilik, uning jangda kichikroq kuch bilan yirik imperiyani mag'lub etishiga sabab bo'ldi. Bu strategik donolik, Aleksandrni nafaqat harbiy qo'mondon sifatida, balki chinakam sarkarda darajasiga ko'tardi. Jang oldidan Aleksandr o'z askarlariga sabr-toqatli bo'lish, Doroning provokatsiyalariga javob bermaslik va faqat belgilangan vaqtda hujum qilish buyruqlarini bergan. U harakatlarining asosiy maqsadi — dushman safida zaiflik yuzaga kelganda hal qiluvchi zarba berish edi.

Jang boshlanishidan avval, Doro o'z armiyasini tekislikda joylashtirib, bo'shliqsiz keng front yaratdi. Bu esa uning qo'shinlar soniga suyanayotganini ko'rsatardi. Shu bilan birga, u markazga o'zining asosiy kuchlarini — fors va hind otliqlari, og'ir qurollangan piyodalar, o'qchilar va yollanma yunon jangchilarini joylashtirgan edi. Uning markazda bo'lishi, o'zining harakatlarini bevosita boshqarish istagini anglatardi.¹⁰

Aleksandr esa, yuqorida aytib o'tilganidek, o'zining kuchlarini chap qanot, markaz va o'ng qanot bo'lib uch qismga ajratgan va ayniqsa o'ng qanotga katta e'tibor qaratgan. U "en echelon" shaklidagi harakatlar orqali asta-sekin dushman chap qanotiga yaqinlasha boshladi. Bu taktika Doroni g'azablantirdi va u o'z navbatida Aleksandrning o'ng qanotini to'xtatish uchun Bess boshchiligidagi Skif va Baqtriyalik otliqlarni yubordi.

Bu bosqichda jangning birinchi to'qnashuvi yuz berdi. Dushman otliqlari makedoniyaliklar bilan to'qnashdi, ammo Aleksandr ularni to'g'ridan-to'g'ri kutayotgan edi. Uning muntazam otliqlari Skif va Baqtriyaliklarga qarshi to'qnashdi. Paeoniyalik otliqlar ularga yordam berdi. Son jihatidan kam bo'lishlariga qaramay, ular safni ushlab turishga va zararni minimallashtirishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa Aleksandrga vaqt yutish, safni yanada yaqinlashtirish va dushman markazini o'rganish imkonini berdi.

⁹ Arrian – "Anabasis Alexandri" – Loeb Classical Library – London, 1926 – 2-jild, 125 pp.

¹⁰ Diodorus Siculus – "Bibliotheca Historica" – Harvard University Press – Cambridge, 1935 – 17-kitob, 58 pp.

Bu vaqtda Doro o'zining pichoqli aravalarini oldinga yubordi. Bu aravalar jang maydonini kesib o'tib, falanga saflarini yorib o'tishga mo'ljallangan edi. Ularning har biri old qismiga o'rnatilgan uzun pichoqlar orqali makedoniyaliklar safini parchalashni maqsad qilgan. Biroq Aleksandr bu xavfni oldindan bilgan va unga qarshi chora ko'rgan edi. Aravalar harakatga tushganida, ular drotiklar (nayza uloqtiruvchilar), Agraniyaliklar va yengil otliqlar tomonidan o'qqa tutildi. Ko'plab aravalar piyodalarga yetib bormasdan avval yo'q qilindi. Falanga esa o'z saflarini ochib, aravalarning zararini kamaytirdi. Keyin esa bu saflar yana yopilib, pozitsiyani tikladi. Bu murakkab harakatlar makedoniyalik askarlarning intizomi va mashg'ulot darajasining yuqoriligini ko'rsatdi.

Bu vaqt oralig'ida Aleksandrning zarbdor kuchlari — Getayr otliqlari, Goplitlar va to'rt falanga batalyoni — tezkorlik bilan dushman chap markazidagi bo'shliq orqali harakatlana boshladi. Bu yurish dushman saflarini o'rta chizig'idan yorib o'tishga qaratilgan edi. Makedoniyaliklarning urushda sinovdan o'tgan taktikasi — bir nuqtaga qaratilgan kuchli zarba — bu gal ham muvaffaqiyatli bo'ldi. Forslar markazida joylashgan yunon yollanma jangchilari va fors og'ir piyodalari ushbu to'satdan amalga oshirilgan hujumga tayyor emas edi. Shuning uchun ular qattiq bosim ostida orqaga chekinishga majbur bo'lishdi.

Doro III ham o'zining qo'rquvini yashira olmay, qo'shinlarini tashlab, jang maydonidan qochdi.¹¹ Bu holat fors qo'shinlarining ruhan sinishiga olib keldi. Jang hali tugamagan bo'lsada, dushman bosh qo'mondonining qochishi butun armiyada tartibsizlik va vahimani keltirib chiqardi. Shunday qilib, Aleksandr o'zining aniq rejalashtirilgan taktikasi va betakror liderligi orqali jangning dastlabki bosqichida ustunlikni qo'lga kiritdi.

Aleksandr bu yurishni boshlashdan oldin, chap qanotdagi bosim kuchayganini sezdi. Bu yerda Parmenio boshchiligidagi yunon va fessaliyalik otliqlar Mazey boshchiligidagi arman va kapadokiylalik otliqlar bilan qattiq to'qnashuvga kirishgan edi. Bu kurash Parmenio uchun og'ir kechayotgan edi, ammo Aleksandr bu bosqichda yordam yuborishdan voz kechib, o'zining asosiy harakatini amalga oshirishni ma'qul ko'rdi. U agar markaz yorilsa, Doro armiyasi izdan chiqishi va jang natijasi bir yoqlama bo'lishini bilar edi.

Qayd etish lozimki, Doroning qochishi makedoniyaliklar uchun to'liq g'alaba degani emas edi. Jangning avvalgi bosqichlarida Aleksandrning markazga yo'naltirilgan zarbasi g'alabani ta'minlagan bo'lsada, forslarning chap va o'ng qanotdagi kuchlari hali ham qarshilik ko'rsatishda davom etayotgan edi. Ayniqsa, Parmenio boshchiligidagi chap qanotdagi makedoniyaliklar og'ir bosim ostida qolgandi. Mazey boshchiligidagi fors va ittifoqchi otliqlar, jumladan Arman va Kapadokiylaliklar, o'zlarining keng yoyilgan safi bilan fessaliyalik otliqlarga qattiq zarba berishgan.

¹¹ Plutarx – "Aleksandr hayoti" – Akademnashr – Toshkent, 2015 – 95-bet.

Bu holat Parmenioni Aleksandrğa yordam so‘rab murojaat qilishga majbur qildi.¹² Yuborilgan xabarchi Aleksandrğa jang maydonida hali ham og‘ir qarshiliklar borligi va chap qanot butunlay yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida ekanini yetkazdi. Bu xabarni olgan Aleksandr dushman markaziga qarshi yurishini to‘xtatishga va yordam kuchlarini safarbar etishga qaror qildi. Bu qaror jang strategiyasida muhim o‘ringa ega bo‘lib, Aleksandrning nafaqat hujum, balki himoya borasidagi layoqatini ham ko‘rsatadi.

Doro III jangdan chekingandan so‘ng fors va hind otliqlarining ayrim bo‘linmalari Makedoniyaliklarning falangai bilan bog‘lovchi hududda bo‘shliqni payqadi. Ular bu bo‘shliqdan foydalanib, bevosita makedoniyaliklarning orqasidagi lagerga yo‘l oldilar. Bu lagerda Issdagi g‘alabadan so‘ng qo‘lga olingan Doroning oilasi, boshqa asirlar va jangovar ta‘minot joylashgan edi. Lagerni Frakiyalik piyoda bo‘linmalari himoya qilayotgan edi, ammo dushman bosimini kutmaganligi sababli, ular dastlabki bosqichda ortga chekinishga majbur bo‘lishdi.

Bu holat makedoniyaliklar uchun ikki tomonlama xavf tug‘dirdi. Bir tomonda chap qanotda bosim ortmoqda, ikkinchi tomonda esa lagerga dushman bostirib kirgan. Biroq Aleksandr oldindan ko‘rilgan ehtiyot choralar orqali bu vaziyatni nazorat ostiga ola bildi. U tomonidan joylashtirilgan ikkinchi piyoda liniyasi aynan shunday xavfli sharoitlar uchun mo‘ljallangan edi. Bu liniya tezda orqaga burilib, lagerga kirgan dushman ustiga orqa tomondan qarshi hujum uyushtirdi.

Orqadan boshlangan bu hujum fors va hind otliqlarini tang holatga tushirib qo‘ydi.¹³ Oldinda esa lager himoyachilari bilan to‘qnash kelgan edi. Bu ikki yoqlama bosim natijasida dushman bo‘linmalari tarqaldi, ba‘zilari jangda halok bo‘ldi, qolganlari esa maydonni tark etishga majbur bo‘ldi. Shu tariqa, lager himoyalandi va asirlar, jumladan Doroning oilasi, yana xavfsizlikka erishdi.

Bu vaqtda chap qanotdagi fessaliyalik otliqlar ham, o‘z navbatida, forslar bilan bo‘lgan og‘ir jangni yakunlab, ustunlikka erishgan edi. Aleksandr tomonidan yuborilgan yordam kuchlari ularga ruhan va harbiy kuch bag‘ishladi. Dushman safi asta-sekin orqaga chekinishga majbur bo‘ldi, keyinchalik to‘liq tarqoq holda qochishga tushdi. Chap qanotda ham g‘alaba ta‘minlangan edi.

Gaugamela jangining bu bosqichi, ya‘ni ikkinchi liniyaning strategik roli va qarshi hujumning o‘z vaqtida amalga oshirilishi, Aleksandr harbiy taktikasining mukammallik darajasini ko‘rsatadi. Bu nafaqat g‘alabani ta‘minladi, balki makedoniyaliklar kuchining tarqoqlikdan yiroq ekanini va har qanday vaziyatga javob qaytara olishini isbotladi. Qarshi hujum strategiyasi ko‘p hollarda himoya uchun ishlatiladi, ammo bu jangda u hujumga aylantirilib, dushmanning so‘nggi umidlarini yo‘qqa chiqardi.

Gaugamela jangining yakunlari harbiy tarixdagi eng muhim burilishlardan biriga aylandi. Bu jang nafaqat harbiy g‘alaba, balki siyosiy va madaniy oqibatlariga ham olib keldi. Aleksandrning bu jangdagi g‘alabasi, qadimiy dunyoning eng qudratli davlatlaridan biri bo‘lgan Ahamoniylar imperiyasining deyarli to‘liq qulashiga sabab bo‘ldi. Bu jangda makedoniyaliklar aniq strategik ustunlik va harbiy intizom orqali fors

¹² Bosworth, A. B. – "Conquest and Empire: The Reign of Alexander the Great" – Cambridge University Press – Cambridge, 1993 – 134–167 pp

¹³ Plutarx – "Aleksandr hayoti" – Akademnashr – Toshkent, 2015 – 92-bet.

kuchlarini yengib, ularning siyosiy markazini beqaror holatga keltirdi. Buning natijasida Aleksandr Janubiy-G'arbiy Osiyodagi eng kuchli hukmdorga aylandi.

Yo'qotishlar haqida gapirganda, qadimgi tarixchilar turli raqamlarni keltiradi. Makedoniyaliklar safida yo'qotishlar nisbatan kam bo'lgan. Arrian o'zining "Anabasis" asarida makedoniyaliklar yo'qotganlar sonini 100 kishi atrofida deb bergan. Biroq bu raqamning ehtimoldan yiroq ekani haqida ayrim zamonaviy tarixchilar fikr yuritishadi. Chunki jang miqyosi juda keng edi va ikki tomon o'rtasida soatlab davom etgan qonli to'qnashuvlar bo'lgan. Shunga qaramay, Makedoniyaliklarning yo'qotishlari, forslar bilan solishtirganda, juda ham kam edi. Diodor va Kvint Krusiy Ruf esa bu borada yuqoriroq raqamlarni taqdim etishgan, ba'zi holatlarda minglab qurbonlar haqida so'z yuritiladi. Har holda, forslarning yo'qotishlari ancha og'ir bo'lgan: minglab jangchilar o'ldirilgan, ko'pchilik asirga olingan va Ahamoniylar qo'shinining harbiy qudrati deyarli yo'q qilinib, yana tiklanmas darajaga yetkazilgan edi.

Eng muhim oqibatlardan biri bu – Doro III ning qochishga majbur bo'lishi va siyosiy jihatdan butunlay izolyatsiyalangan holda qolganidir. Gaugamela jangidan so'ng Doro o'zining bir necha sodiq tarafdorlari bilan Baqtriyaga chekinishga urindi. Ammo bu yerda ham u himoyasiz va ishonchsiz holda qoldi. Bess – Baqtriya satrapi va ilgari Gaugamelada Doroning chap qanotida turgan harbiy arbob – uni ushlab, oxir-oqibat 330-yilda o'ldirdi. Doroning o'limi Ahamoniylar sulolasining rasmiy tugashini anglatdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki Aleksandr bu g'alabadan so'ng o'zining harbiy yurishlarini davom ettirib, fors poytaxti bo'lgan Bobil, Suza va Persepolis shaharlarini egalladi. U yerda u katta boyliklarga ega bo'ldi va o'zini Osiyo hukmdori sifatida e'lon qildi. Gaugamela jangidan so'ng uning siyosiy maqomi ham o'zgardi – u endi shunchaki makedoniyalik podshoh emas, balki butun qadimgi Yaqin Sharqning eng qudratli hukmdoriga aylandi.

Bu jangning madaniy va siyosiy ahamiyati ham beqiyosdir. Ahamoniylar imperiyasi O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya va Misr hududlarini birlashtirgan dunyoning eng yirik siyosiy tuzilmasi edi. Bu tuzilma Aleksandrning yurishlari natijasida parchalanib, yunon-makedon madaniyati va siyosiy modelining ushbu hududlarga kirib borishiga yo'l ochdi. Shunday qilib, Gaugamela jangidan so'ng Ellinistik davr boshlanadi.

Bu davrda Aleksandr o'z imperiyasini faqat harbiy kuch bilan emas, balki madaniyat, til, siyosiy institutlar va boshqaruv shakllari orqali ham kengaytiradi. Gaugamela shunchaki bir jang emas edi – u butun bir davrning yakuniga va yangi bir tarixiy bosqichning boshlanishiga sabab bo'ldi. Aleksandrning g'alabasi, o'z davrining eng kuchli harbiy imperiyasini yakson qilib, tarix sahnasiga yangi imperatorlik modelini olib chiqdi.

Bu modelda yunoncha bilim, strategiya, iqtisodiy siyosat va gibril boshqaruv shakli birgalikda mavjud bo'ldi. Shu sababli, Gaugamela jangining oqibatlari nafaqat harbiy yoki siyosiy, balki tarixiy va tsivilizatsion ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu jang Aleksandrni afsonaviy sarkarda sifatida tarixda mustahkamlab qo'ydi va uning yurishlariga global tus berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arrian – "Anabasis Alexandri" – Loeb Classical Library – London, 1926 – 2-jild, 112–145-betlar.
2. Plutarx – "Aleksandr hayoti" – Akademnashr – Toshkent, 2015 – 76–102-betlar.
3. Diodorus Siculus – "Bibliotheca Historica" – Harvard University Press – Cambridge, 1935 – 17-kitob, 53–60 pp.
4. Quintus Curtius Rufus – "Historiae Alexandri Magni" – Penguin Classics – New York, 1984 – 4-kitob, 1–23 pp.
5. Bosworth, A. B. – "Conquest and Empire: The Reign of Alexander the Great" – Cambridge University Press – Cambridge, 1993 – 134–167 pp.
6. Freeman, P. – "Alexander the Great" – Simon & Schuster – New York, 2011 – 182–200-betlar.
7. Fox, R. L. – "Alexander the Great: Conqueror of the Ancient World" – Penguin Books – London, 2004 – 155–178 pp.
8. Ахмедов, Б. – "Александр Македонский и Восток" – Фан – Ташкент, 1989 – 98–123-бетлар.